

## **Toshkent tibbiyot akademiyasining murojaatlar bilan ishlash borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan 2022 yil yanvar-dekabr oylari uchun taxliliy yozma axborot**

Toshkent tibbiyot akademiyasida “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni talablarini so‘zsiz va o‘z vaqtida bajarish asosiy vazifalaridan biri deb hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi, Prezident Xalq qabulxonasi, Prezident Pochtasi, veb-sayti, elektron pochta, yozma va og‘zaki, ishonch telefoni orqali akademiya jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushayotgan murojaatlarning ijrosi so‘zsiz bajarilishini ta‘minlash va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish yuzasidan amalga oshirilgan ishlari etarli darajani tashkil etilmoqda. Akademiyaning rasmiy sayti, ijtimoiy tarmoqlar orqali hamda konunchilikda belgilangan boshqa yullar bilan yuborilgan murojaatlar ko‘rib chiqilishi natijalarini tizimli, yoritishni ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar muntazam ishlab chiqilmoqda.

2022 yil IV choragi davomida tibbiyot ta‘lim tizimida murojaatlar bilan ishlashning xolati to‘g‘risida talabalar (anonim so‘rovnomalar) va ota-onalari, jamoatchilik fikrini o‘rganib borish va ularning natijalari haqida akademiya jamoasini ilmiy kengash va haftalik rektorat yig‘ilishlarida muntazam xabardor qilib borildi. Akademiya jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlar bilan ishlashda ochiqlik va shaffoflikni yanada kengroq ta‘minlash maqsadida shaxsan rektor A.K.SHadmanov tomonidan nazorat etiladi. TTAda akademiya rektori A.K.SHadmanov va ma‘sullarning murojaatchilarni qabul etish qabul jadvaliga asosan dushanba soat 8 dan 10 gacha shaxsiy qabullarni tashkil qilingan. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo‘yicha ma‘sullarning qabullari tasdiqlangan jadval asosida olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risidagi Qonuniga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarni murojaatlarini taxlil qilish va akademiyaning haftalik (dushanba kuni) Apparat kengashi yig‘ilishlarida murojaatlar ijrosini tanqidiy muhokama etib borilishini ta‘minlash jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo‘limi boshlig‘i D.D.Achilov tomonidan muntazam amalga oshirilmoqda, rektorat yig‘ilishkengashlarida hisobotlar berilmoqda va shaxsan rektor tomonidan yig‘ilishlarda muhokama etilmoqda. Toshkent tibbiyot akademiyasining rasmiy veb sayti orqali ([www.tma.uz](http://www.tma.uz)) elektron manzil [info@tma.uz](mailto:info@tma.uz), [tta2005@mail.ru](mailto:tta2005@mail.ru), ishonch telefoni (150-78-25) orqali kelib tushgan murojaatlar tizimli ravishda ma‘sullar tomonidan mualliflarga murojaatda keltirilgan har bir vaj yuzasidan to‘liq va asoslantirilgan hamda rahbarlar tomonidan imzolangan javob xatlari berilishini qonunda ko‘rsatilgan muddatlarda ta‘minlanmoqda.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarni IV chorakda qilingan ishlar umumlashtirilib, taxlil qilinib, hisobot shakllari asosida o‘rnatilgan tartibda Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirligiga akademiya bo‘yicha mas‘ul F.SH.Tuxtaxodjayeva tomonidan o‘z muddatlarida taqdim etilmoqda.

2022- yil IV choragida fuqarolarning murojaatlari bo‘yicha ish yuritishni tizimli ravishda tashkil etildi, pm2.gov.uz dasturi imkoniyatlaridan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yildi. Tizim orqali fuqarolardan 24 ta, veb saytdan 61 ta, yozma 10 ta. Jami 95 ta murojaat tushdi va ijrolari bajarildi.

2022- yil 25- fevral Toshkent tibbiyot akademiyasida innovatsion o'quv jihozi o'rnatildi maxsus reportaj namoyish etildi. O'zbekiston 24 telekanali orqali yoritildi.

2022- yil 2-mart Toshkent tibbiyot akademiyasi: o'qitish tizimiga zamonaviy va innovatsion yondashuv maxsus reportaj namoyish etildi. O'zbekiston 24 telekanali orqali yoritildi.

2022- yil 7- mart Toshkent tibbiyot akademiyasi tomonidan 8-mart Xotin-qizlar kuni munosabati bilan tantanali tadbir tashkil etildi. Yoshlar telekanali orqali yoritildi.

2022- yil 15-mart Toshkent tibbiyot akademiyasi bitiruvchilari Sirdaryo viloyatida qurilayotgan tibbiyot muassasalari bilan tanishdi. O'zbekiston 24 telekanali orqali yoritildi.

2022- yil 15-mart Toshkent tibbiyot akademiyasining professor-o'qituvchilari tomonidan Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida seminar-trening tashkil etildi. Farg'ona 24 telekanali orqali yoritildi.

2022- yil 16-martdan 20-martgacha "Bolalarga tabassum" xayriya aksiyasi doirasida akademiya rektori A.K.Shadmanov tashabbusi bilan Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti klinikasi negizida tug'ma nuqsonli bolalarni qabul qilish, tibbiy ko'rikdan o'tkazish va ularni jarrohlik yo'li bilan davolash tadbirlarini tashkil etish uchun Toshkentdan malakali mutaxassislar Qoraqalpog'istonga bordi. O'zbekiston 24 telekanali orqali yoritildi.

2022- yil 25- mart Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalari uchun akademiya rektori A.K.Shadmanov boshchiligida bo'sh ish o'rinlari yarmarkasi tashkil etildi.

2022- yil 26- mart Toshkent tibbiyot akademiyasida akademiya rektori A.K.Shadmanov boshchiligida beg'araz donorlik hayriya aksiyasi bo'lib o'tdi.

2022- yil 29- mart Toshkent tibbiyot akademiyasida "Davlat oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezidentimiz qarorlarining ijrosini ta'minlash maqsadida xalqaro konferentsiya o'tkazildi. Yangi O'zbekiston gazetasida maqola chop etildi.

Toshkent tibbiyot akademiyasi talabalar turar joylari respublika ishchi guruhi tomonidan o'rganildi. O'zbekiston 24tv, Yoshlar kanali, O'zAda yoritildi.

Rektor A. K.Shadmanov, Ta'lim sohasini rivojlantirish yo'nalishida, tumanga biriktirilgan Toshkent tibbiyot akademiyasi bilan Uchtepa tumani maktab ta'limini rivojlantirishga qaratilgan hamkorlik memorandumini imzolash marosimida ishtirok etdi. O'zbekiston 24 tv.Mtrk yoshlar kanali, Yangi O'zbekiston gazetasi sahifalarida yoritildi.

Koreya xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti (KOFIH) bilan tibbiyot akademiyasining pedagogik salohiyatini yanada oshirish maqsadida xalqaro tibbiy tashkilotlardan yetkakchi mutaxassislarni jalb etish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. O'zbekiston 24 tv.Mtrk yoshlar kanali, Yangi O'zbekiston gazetasi sahifalarida yoritildi.

2022-yil 6-may kuni "9-may Xotira va qadrlash kuni" munosabati bilan "Uch avlod uchrashuvi: tarix, bugun va kelajakni o'zida mujassam etgan ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. O'zbekiston 24 tv.Mtrk yoshlar kanali, Yangi O'zbekiston gazetasi sahifalarida yoritildi.

Poytaxtimizdagi Xalqlar do'stligi san'at saroyida oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlari o'rtasida orziqib kutilgan "Quvnoqlar va zukkolar" ko'rik-tanlovining respublika final bosqichida rektor A.K. Shadmanov va ilk bor Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri Abduqodir Toshqulov ishtirok etdi. O'zbekiston 24 tv. Mtrk yoshlar kanali, Yangi O'zbekiston gazetasi sahifalarida yoritildi.

2022- yil 4-iyul Qoraqalpok rasmiy munosabat, ilmiy kengash talabalarni taqdirladi. Yugurish bo'yicha musobaqada sportchi talabalar taqdirlandi. O'zbekiston 24tv, Yoshlar kanali, O'zAda xabar va lavhalar berildi.

2022-yil 10-avgust TTA ning Xindistondagi vakolatxonasi ochildi, A.K.Shadmanov tashabbusi bilan O'zbekiston 24 tv.Mtrk yoshlar kanali, Yangi O'zbekiston gazetasi sahifalari habar tarqatdi.

2022- yil 25 avgust TTA va Koreya tibbiyot universiteti xalqaro hamkorliginri rivojlantirish bo'yicha A.K.Shodmonov ishtirokida ikki tomonlama shartnoma imzolandi. O'zbekiston 24 tv.Mtrk yoshlar kanali, Yangi O'zbekiston gazetasi sahifalari habar tarqatildi.

2022- yil 31-avgust Mustaqilligimiz 31 yilligi munosabati bilan tabrik. O'zbekiston 24 tv.Mtrk yoshlar kanali, Yangi O'zbekiston gazetasi sahifalari habar tarqatildi.

2022- йил 26- сентябр “Талабаликка бағишлов” тантаналари ўтказилди. O'zbekiston 24tv, Yoshlar kanali, O'zAda xabar va lavhalar berildi.

2022- yil 2- oktabrda “Ustoz va murabbiylar kuni “ munosabati professor-o'qituvchilarga rasmiy tabrik yo'lladi hamda bir guruh o'qituvchilar taqdirlandi. O'zbekiston 24 tv.Mtrk yoshlar kanali, Yangi O'zbekiston gazetasi sahifalari habar tarqatildi.

2022- yil 9- oktabrda “Shifokorlar kuni”ga bayram tadbiri o'tkazildi. Rektor bir guruh shifokor o'qituvchilarni tabrikladi. O'zbekiston 24tv, Yoshlar kanali, O'zAda xabar va lavhalar berildi.

2022- yil IV choragi davomida Jismoniy va yuridik shaxslarning qabuli bo'yicha choraklik hisobotlar taxlili, akademiya rasmiy veb sayti ([www.tma.uz](http://www.tma.uz)) da Jismoniy va yuridik shaxslarning qabuli rukniga joylashtirildi. Ruknda murojaatlar bo'yicha ma'lumotlar hisobotlari tizimli ravishda berib borilishi ta'minlanmoqda. TTAda 2022- yil IV choragi davomida murojaatlarni ko'rib chiqish yakunlari bo'yicha hech qanday kamchiliklar va qoidabuzarliklarga yo'l qo'yilmadi.



A.K.Shadmanov